

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNEVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh. Xodjayeva
29-avgust 2025-yil

**“YAKKAXON QO‘SHIQCHILIK” FANIDAN
O‘QUV DASTURI**

Ta’lim sohasi:	210 000	– San`at va Gumanitar fanlari
Bilim sohasi:	200 000	– San’at
Ta’lim yo‘nalishlari:	60211700	- Xalq ijodiyoti: (Ashula va raqs yo‘nalishi)

Fan/modul kodi YAQ 200114		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1,2,3,4,5,6,7	ECTS - Kreditlar 14
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2,2,2,2,2,2,2
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Yakkaxon qo'shiqchilik	210	210	420

I. Fanning mazmuni

Ushbu o'quv dastudra "Yakkaxon qo'shiqchilik" fanining tarixi, rivoji, yo'li, istiqboli hamda sohaning ilk davridan to bugungi kunga qadar shakillanish jarayonini qamrab oladi.

Respublikamizda milliy musiqiy meros, ijrochilikni mukammal va chuqur o'rganish, ijrochilik uslublarini egallash hamda targ'ib qilish masalalarini yoritadi. Yoshlar orasida ijrochilikka bo'lgan qiziqishni qondirish maqsadida badiy havaskorlik ishlarini tashkil etishni nazarda tutadi.

Ushbu fan orqali talabalar 1,2,3,4,5,6,7-semestrlarda yakka mashg'ulot tarzida amaliy bilimlarini egallaydilar. Fan dasturi orqali talabalarga o'zbek ananaviy ijrochiligi asoslari, ijroviy sub'ektlar, ijro turlari va qoidalari, yakkaxon qo'shiqchilikda hududiy uslublardan foydalanish yo'llari haqida mukammal o'qitish nazarda tutiladi.

Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Yakkaxon qo'shiqchilik fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Manchester universiteti (Buyuk Britaniya)ning Yakkaxon qo'shiqchilik fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 32-o'rinni egallagan bo'lib, huquqshunoslik sohasi bo'yicha yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan:

Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Manchester universitetining Land Law kursida yuridik nazariya bilan bir qatorda amaliyoti ham keng yoritiladi.

Ushbu modul qo'shiqni kengroq ijtimoiy-siyosiy masalalarni aks ettiruvchi ko'p tilli, vaqtlararo hodisa sifatida o'rganadi. Bu o'quvchilarni turli davrlar, joylar va tillardagi qo'shiqlarning turli repertuarlari bilan tanishtiradi va ularni

qo'shiq va uning jamiyat bilan aloqalarini tahlil qilish uchun turli metodik vositalar bilan ta'minlaydi. Talabalar turli xil auditoriyalar, ham akademik, ham jamoat uchun turli yo'llar bilan qo'shiq haqida yozishni o'rganadilar. Ular davomida qiyosiy, fanlararo va tarixiy qo'shiq o'qishlarini o'tkazish imkoniyati yaratiladi. Qo'shiq haqidagi bizning ta'rifimiz ataylab ochiq va moslashuvchan bo'lib, o'qituvchilar va talabalarning manfaatlaridan kelib chiqadi. Modul har bir iteratsiyada to'rttagacha mavzuni o'z ichiga olgan holda, tadqiqotga yo'naltirilgan mavzularga e'tibor qaratadigan kichik akademiklar jamoasi tomonidan o'qitiladi. Mavzular bo'lishi mumkin: qo'shiq va joy / landshaft / geografiya; qo'shiq va vaqtinchalik; qo'shiq va millat / transmilliy; qo'shiq va siyosat; qo'shiq va jins/sinf/irq; qo'shiq va tana; qo'shiq va ovoq; qo'shiq va fan; qo'shiq va ijro; qo'shiq va dasturlash; qo'shiq va zo'ravonlik; qo'shiq va hayvonlar; sahifadagi qo'shiq; hikoya/romandagi qo'shiq; qo'shiq va matn; qo'shiq va tarjima; qo'shiq va kanon. Shuni esda tutingki, barcha materiallar ingliz tiliga tarjima qilinadi va talabalar musiqa o'qishi yoki boshqa musiqiy ta'lim olgan bo'lishi uchun hech qanday talab yoki kutish yo'q.

<https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/song-in-society-ELCS0075>

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulatlari)

Fan bo'yichama'ruza mashg'ulotlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiylar.

Fan bo'yicha amaliy mashg'ulotlar namunaviy o'quv rejada ko'rsatilmagan.

IV. Yakka mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Izoh; yakka mashg'ulotlarning tarkibiyb qismiga kiritilgan mavzular alohida holda bitta mashg'ulot ko'rinishida o'tkazilmaydi. Aksincha har bitta semestrda ijro etilishi rejalashtirilgan asarlarning har tomonlama mukammal o'zlashtirishga xizmat qiladi. "Yakkaxon qo'shiqchilik" bo'yicha har semestrda kamida 4 ta musiqiy asar o'zlashtiriladi. [Musiqiy asar tarkibida bastakorlar asarlari xalq ashulalaridan namunalar, katta ashula namunalaridan, maqom sho'balaridan asarlar bo'ladi.

1-modul. Yakka ijroning nazariy asoslari va xususiyatlari: tovush hosil qilish va ohangdoshlik – Bastakor haqida ma'lumot, badiiy matn tahlili, shoir qahida ma'lumot, lab va jag' faoliyatini mo'tadillashtirish, tilchakning

ahamiyatiga e'tibor berish, nafasdan rotsional foydalanish. So'z va kuy uyg'unligiga erishish.

2-Asar matnini to'g'ri talaffuz etish – diksiy - Undosh tovushlarda til, jag', lab faoliyatini mo'tadillashtirish. Gavda jumaladan, qo'l, yelka, bosh, bo'yinlarga e'tibor berish.

3-Asar mazmuniga mos badiiy-musiqiy ijro etish ko'nikmasi – So'z bo'g'inlari va ashuladagi har bir nag'ma ustida mashqlar olib borish. Tayanch va yordamchi pardalarni talabaga tushuntirish. Lablanmagan undosh tovushlar ustida ishlash.

4-O'zining shaxsiy qobiliyati, iste'dodidan unumli foydalanish va rivojlantirish

Musiqiy ijrochilikda talabaga erkinlik berish, iste'dodini shakllantirishda uning ijrosiga asar mavjud bo'lmagan ammo foydalansa bo'ladigan kuy jumllarini singdirish.

5-Ritmni his etish, dinamika, frazirovka - Dirijyorlikdan, qarsak, qadam tashlash kabi holatlardan foydalanish. Asar matnini kuysiz ritm bilan o'qish. Nafasning tejamkorligiga erishish, tabiiy talaba ovozining tuslaridan unumli foydalanish, talabaga ko'proq hazin va shodlik ruhidagi g'azallardan o'qitish. Taktdagi har bir hissani ishlash, har bir taktni mashqlar davomida rivojlantirish yo'llari bilan frazirovka (musiqiy jumla) mukammalligiga erishish.

6-Ijroni jo'rnavoz bilan uyg'unlantirish – Talabaga asarni cholg'u sozida ijro qilib berish, bu jarayonida talabadan asar usulini ijro qilishini talab etish, soz jo'rligisiz frazalar ustida ishlash, ovozni soz bilan uyg'unlantirish mobaynida ohang sofligi, usul barqarorligi va nafas olish qoidalarining buzilmasligiga erishish

7-Konsert ijrochiligi repertuaridan ahloqiy-ma'naviy hamda vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish – Konsert repertuarini tomoshabin vatanparvarlikni his qilish maqsadida unga ahloqiy, vatanparvarlik ruhidagi, dedaktik g'azallardan repertuarga kiritish. Bunda, Maxtumquli, Sulaymon Boqirg'oniy, Chustiy, kabi shoirlarning g'azallaridan foydalanish. Rasul qori Mamadaliyev, Komiljon Otaniyozov, Ortiq Otajonov, Kamoliddin Rahimovlar kabi repertuaridan unumli foydalanish.

8-An'anaviy bastakorlar ijodidan nanumalar ijro etish

Musiqiy merosimiz haqidagi malakalarini mustahkamlaydi. Talaffuzni rivojlantiradi, musiqiy asardagi tovush xarakterlarini idrok etishga o'rgatadi. Ma'lum darajada o'zbek musiqasi tarixiga qiziqish uyg'otadi.

9-Mumtoz ashulalar, katta ashula ijrochiligi - Mumtoz shoirlarning g'azallariga yozilgan maqom, doston, yo'llaridagi kuylarga bog'langan asarlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'ladi. Aksariyat hollarda doira usuliga

bo'ysundirilmagan ovoz shakllantirishning turli yo'llarida ijro etiladigan katta nafas, katta ovoz, katta iste'dod talab qilinadigan asosan Farg'ona vodiysiga xos musiqiy asarlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi va ijro malakasini oshirib boradi.

10-Maqom sho'balaridan namunalarni ijro etish - Talabaga maqomat haqidagi tushunchalar nazariy va amaliy tushunchalar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Talabaning ovoz imkoniyati va qobiliyatidan (ba'zi hollarda moslash ham mumkin) kelib chiqib, maqomlardagi Naqsh, Soqiynoma, Nasr kabi sho'balardan foydalanish tavsiya etiladi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqul ishlar

Mustaqil ishning asosiy maqsadi – bakalavrlarda muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lganda bilm va ko'nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Mustaqil ishning tshkiliy shakllari quydagidan iborat:

- Qo'shiq va ashulaning she'ri va musiqiy matinning aniq ijro etish;
- Turli shakildagi ovoz mashiqlarini bajarish (cholg'u va cholg'usiz);
- Asardagi ijro bezaklari, nota o'qish ko'nikmasi, uslubiy adabiyotlar;
- Audio, video yozuvlar to'plash va internet tarmog'laridan foydalanish;
- Mashhur xonandalar ijrosini kuzatib borish, tahlil etish;
- Yangi asarlar bilan tanishib borish, imkon darajasida mustaqil o'zlashtirish ko'nikmasini hosil qilish;

Uy vazifalarini bajarish, yangi bilimlarni mustaqil o'rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va to'plash yo'llarini aniqlash.

Mazkur vazifalarning bajarilganlik holati o'qituvchi tomonidan nazorat qilib borish.

Talabalarga mustaqil ishni tayorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olga holda quydagi shakllardan foydalanishga tavsiya etiladi.

VI. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

Talabalar bilishi kerak:

- Ustoz xonanda ijrochilarning uslublarini chuqur o'rganib mumtoz qo'shiqlarni o'zlashtirish tasavvurga ega bo'lish;
- Mumtoz qo'shiqlar, o'zbek bastakorlari asarlari, o'zbek xalq qo'shiqlari ularning shaklan tuzilishi, usuli sanog'lari, kuy o'lchovi, asar shakli va tuzulishi, asarlarning cholg'u yo'li va aytim yo'llarini ijro qilish orqali unda barcha notalarni his qilib cholg'u ijrochilik fannidan bilimlarga ega bo'lish;

VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Og'zaki tushuntirish, savol-javob, musiqiy tahlil, amaliy ijro.
- Yakka tartibda ishlash;
- Talabalarning milliy cholg'usida ijro, (cholg'uda (pastanovka) amaliy ijro etish:
- Asarlarning nota matni;

- Ijro holatini kuzatish, kamchiliklarni aytib, shaxsiy namuna orqali to'g'irlab borish, berilgan og'zaki ma'lumotlarning qay darajadaligini aniqlash va talabaga yetkazish.

VIII.Kreditlarni olish uchun talabalar:

Joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan asarni yakka ijro qilib muvoffaqiyatli topshirish.

IX. Asosiy adabiyotlar

- O. Safarov "Yakkaxo qoshiqchilik" darslik "Donishmand Ziyosi" 2023 yil
 B. Do'stmurodov "An'anaviy xonandalik" O'quv qo'llanma 2015 yil
 B. Do'stmurodov "Yakkaxon qo'shiqchilik" O'quv qo'llanma 2013 yil
 O. Matyoqubov "Shashmaqom saboqlari", O'quv qo'llanma – T.: YUNESKO tamg'asi ostida, 2007 y.
 Q. Mirzayev "Badiy (Vokal-xor) jamolar bilan ishlash uslubiyoti" darlik T-2020 y.
 J.T.Shukurov "Badiy jamoalari bilan ishlash uslubiyoti" drslik T-2020y.
 K. Bo'riyeva An'anaviy xonandalik(Ayollar ovozlari uchun) O'quv qo'llanma T-2008 y.
 N. Xolboev Yakkaxon qo'shiqchilik (An'anaviy xonandalik) T- 2018 y.
 R. Nosirov "Soz bilan suhbat", O'quv qo'llanma – T.: "Yangi asr avlodi" 2007
 M. Xudoynazarov "Yakkaxon qo'shiqchilik", O'quv qo'llanma – T.: "O'z R FAAK" 2006 y.
 I. G'aniyeva "Tanavorlar", O'quv qo'llanma – T.: "Uzipkomseptr", 2003 y.
 J. Shukurov "Jamoat ijrochiligi", O'quv qo'llanma – T.: "Yangi asr avlodi", 2012y.
 X. Jo'rayev "O'rtar", O'quv qo'llanma – T.: "G'.G'ulom", 2006 y.
 A. Hakimov,D. Ergashyeva "Saraxbor" (birinchi kitob) qo'llanma T-2012
 A. Talaboyev "Yakkaxon qo'shiqchilik" O'quv qo'llanma 2020 yil
 G'. Yunusov "Folklor jamoa ijrochiligi" O'quv qollanma T-2021y
 D. Madolimov "yakkaxon qo'shiqchilik" O'quv qo'llanma Qo'qon 2025 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

Mirziyov SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

Mirziyov SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil

Mirziyov SH.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil

Mirziyov SH.M. Erkin va faravon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi davlat dasturi. PF-60-son 2022 yil 28-noyabr

Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" – T."Ma'naviyat"2008y

Tursunov R, Mannopov S. "An'anaviy qo'shiq ijrochiligi uslubiyoti", O'quv qo'llanma – T.: "Fan", 2003 y.

O. Matyoqubov "Maqomot" - T.: "Musiqqa", 2004 y.

Internet saytlari:

1. www.artist.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.universalia.nov.ru/instruments.
4. www.muzik.uz
5. www.classicmuzik.uz
6. www.ixlos.uz
7. www.nota.ru
8. www.rizanova.uz
9. <https://www.ucl.ac.uk/module-catalogue/modules/song-in-society-ELCS0075>
10. <https://www.manchester.ac.uk/study/undergraduate/courses/2025/12446/llb-law/course-details/LAWS20250#course-unit-details>

Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.

Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:

S. Topildiyev - Xalq ijodiyoti kafedrası mudiri, dotsent
T.M. Mo'minov - Xalq ijodiyoti kafedrası professori
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist
T. Xaydarov - Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist
A. Abdurhimov - Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti
G'. Yunusov - Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti
I. Jo'rayev - Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti
A. Talaboyev - Xalq ijodiyoti kafedrası dotsenti
D. Madolimov - Xalq ijodiyoti kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: O‘zbekiston davlat san’at va madaniya instituti “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrası professori O. Safarov O‘zbekiston xalq xofizi